

## O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILARNI SOLIQQA TORTISH MA'MURCHILIGINING SHAKLLANISHI

*Jumaev Shuxrat*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiliginini amalga oshirishning xorij tajribasi tahlil qilingan bo'lib, bu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiliginini takomillashtirish masalalari, Yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiliginini yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, yirik soliq to'lovchilar, xorij tajribasi, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

**Аннотация:** В данной статье проанализирован зарубежный опыт налогового администрирования крупных налогоплательщиков, и в результате этих анализов были разработаны вопросы совершенствования налогового законодательства Республики Узбекистан, предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию налогового администрирования крупных налогоплательщиков.

**Ключевые слова:** налог, бюджетная политика, бюджет, налоговое администрирование, крупные налогоплательщики, зарубежный опыт, налоговый потенциал, налоговая нагрузка, налоговая ставка, налоговые льготы.

**Annotation:** This article analyzes the foreign experience of tax administration of large taxpayers, and as a result of these analyzes, issues of improving the tax legislation of the Republic of Uzbekistan, proposals and recommendations for further improving the tax administration of large taxpayers were developed.

**Key words:** tax, budget policy, budget, tax administration, large taxpayers, foreign experience, tax potential, tax burden, tax rate, tax benefits.

**Kirish:** Jahon amaliyotida yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'murchiliginini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, yirik soliq to'lovchilar faoliyati samaradorligini baholash ko'rsatkichlarini aniqlash, yirik soliq to'lovchilarga audit va soliq nazoratini qo'llab-quvvatlash majburiyatini to'liq bajarish, nazorat funktsiyalarini tarmoqlar bo'yicha tuzilmalash, qoidalarga birgalikda rioya etish tamoyilini amalga oshirish, soliq to'lashdan bo'yin tovplashni to'xtatishning samarali mexanizmini ishlab chiqish masalalarining dolzarbligi ularning etarlicha nazariy va normativ jihatdan o'rganilmaganligi va zamonaviy iqtisodiy sharoitda yuqori amaliy ahamiyati bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

## **Adabiyotlar sharhi**

Yirik soliq to‘lovchilar soliq ma’murchiliginin takomillashtirish yuzasidan bir qancha olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ushbu mavzu keng miqyosdagi dolzARB tadqiqot yo‘nalishi sifatida o‘rganilib kelinmoqda.

Jumladan, avstraliyalik olimlar Z.Akhand va P.Grob [1,2] tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik soliq to‘lovchilarni boshqaruvini maxsus bo‘linmalar tomonidan nazorat qilish tizimini joriy etishda erishilgan yutuqlar va kamchiliklar tadqiq qilingan. M.Ahmed [3] tadqiqotida yirik soliq to‘lovchilar soliq ma’muriyatichiliga oid Pokiston tajribasi keltirilgan.

Rossiyalik olimlardan A.Yunak [4] tadqiqotlarida yirik soliq to‘lovchi tushunchasini belgilovchi normalar, yuridik shaxslarni belgilangan soliq to‘lovchilar toifasiga tasniflash mezonlari, soliq nazorati va hisobining o‘ziga xos xususiyatlari, qonunlar bilan belgilanishi lozimligi asoslagan. O.Sitnikova [5] Rossiya Federatsiyasi misolda konsolidatsiyalashgan soliq to‘lovchini soliqqa tortish bo‘yicha amaliyotidagi kamchiliklarni aniqlagan. S.Pepelyaev [6] tadqiqotlarida soliq organlari faoliyatidagi huquqiy va funksional kamchiliklarga baho berilgan. Shu bilan birga, yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma’muriyatichiliqi oid tadqiqotlar kengayib, A.Karataev [7,8], G.Aytxojina [9], M.Belugina [10] kabi tadqiqotchilar yirik soliq to‘lovchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilgan. L.Goncharenko [11] tadqiqotlarida yirik soliq to‘lovchilarning transfer narxlardan foydalanish muammolarini tadqiq qilgan, K.Novosyolov [12] va L.Korolevalar [13] soliq to‘lovchilarning konsolidatsiyalashgan alohida tuzilmasini joriy etilishining muhimligini ilmiy asoslagan.


## **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 26-iyundagi PQ-3802-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 17-apreldagi “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 320-sonli qarori alohida ahamiyat kasb etadi. Bu nizomlarda Davlat soliq qo‘mitasining asosiy vazifalari sifatida “soliq to‘lovchilar o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy bajarishi uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, har bir xodim tomonidan “Soliq xizmati –insofli soliq to‘lovchilarning ishonchli hamkor” degan maqsadli vazifani so‘zsiz bajarish, soliq to‘lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish, soliqqa oid huquqbazarliklarning profilaktikasi, ularni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni bajarish, soliq to‘lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko‘rsatishga to‘liq o‘tish yo‘li orqali soliq to‘lovchilar bilan ishslashni takomillashtirish”<sup>1</sup> kabilarning yuklanishi soliq

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2019 йил 17 апрелдаги “Давлат солик хизмати органлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 320-сонли карори

xizmati organlari tomonidan soliq ma'murchiligining yangi shakl va mazmundagi muhim yo'nalishlari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tarkibiga kiruvchi institutsional tuzilma - Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiysi tuzildi va unga asosiy vazifa sifatida joylashgan joyi va amalga oshirayotgan faoliyatidan qat'iy nazar, yirik soliq to'lovchilarning soliq ma'muriyatchilagini amalga oshirish vazifasi yuklandi.



**1-rasm.Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiysi soliq ma'muriyatchiligi bo'yicha funktsiya va vazifalari<sup>2</sup>**

<sup>2</sup> Амалдаги қонунлилик ҳужжатлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Keltirilgan rasmdan ko‘rish mumkinki, yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiysi soliq ma’murchiligi bo‘yicha funktsiya va vazifalari ularning soliq to‘lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning adolatlilik tamoyillarini qo‘llagan holda, ularga yuklatilgan soliq majburiyatlarining qonun doirasida bajarilishini ta’minlash hamda insofli soliq to‘lovchining ishonchli hamkoriga aylanishdek muhim strategik vazifalar belgilab berilgan.

Agar, yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiysi va uning hududiy bo‘linmalariga soliq ma’murchiligi doirasida yuqorida keltirilgan vazifa va funktsiyalarning oxirgi 2019-2021-yillardagi ijrosining holatini tahlil etadigan bo‘lsak, quyidagi natijaviy ko‘rsatkichlarga yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin.

*Yirik soliq to‘lovchilar hisobini tashkil etish va ulardan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjalarda ko‘zda tutilgan soliqlar va yig‘imlarning to‘liq tushishini ta’minlash borasida:*

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiysi tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan yirik soliq to‘lovchilar tarkibi 2019-yilda 1 416 ta, 2020-yilda 836 ta va 2021-yilda soliq to‘lovchilar soni 1 149 tani tashkil etgan. 2020-yilda soliq to‘lovchilar sonining keskin pasayishi aynan shu davrda tijorat banklari va ularning respublika miqyosidagi filiallarini transformatsiya qilinishi hisobiga to‘g‘ri keladi. Ya’ni bunda tijorat banklari uchun soliq hisobotlarini topshirish va to‘lovlarni amalga oshirish jarayonini soddalashtirish maqsadida bank filiallarining soliq hisobi yuritiladigan shaxsiy hisobvaraqlari ularning bosh ofislarining shaxsiy hisobvaraqlariga birlashtirilgan. Natijada, tijorat banklariga qo‘srimcha qulayliklarni yaratilishiga, barcha soliq turlari bo‘yicha markazlashtirilgan hisob-kitob va to‘lovlarni amalga oshirishda, hisobot shakllarini taqdim etilish jarayonlari faqat bosh ofislar orqali amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yilgan.

2021-yilda Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritish bo‘yicha belgilangan mezon talablari asosida respublika bo‘yicha faoliyat yuritib kelayotgan korxonalar tahlildan o‘tkazilib, qo‘srimcha 313 ta korxona yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan. Yuridik shaxslarni yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritish bo‘yicha belgilangan mezon talablariga 2020 va 2021-yillarda qator o‘zgartirishlar kiritilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining havo bo‘sning idan yo‘lovchilarni tashish maqsadlarida foydalanuvchi, xalqaro havo aloqalarini amalga oshiruvchi va ularning tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar ham yirik soliq to‘lovchilar hisoblanadigan bo‘ldi. Bundan tashqari, uglevodorod xom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, etkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va etkazib beruvchi yuridik shaxslar, bundan avtomobilarga yoqilg‘i quyish shahobchalari mustasno deyilgan mezonga o‘zgartirish kiritilib, ushbu mezon quyidagi tahrirda “uglevodorod hom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, etkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va etkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) etkazib

beruvchi chet el yuridik shaxslarining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari (bo‘linmalari), bundan avtomobilarga yoqilg‘i quyish shahobchalari mustasno” deb o‘zgartirildi. Shu bilan birgalikda, nizomga realizatsiya qilish joyi O‘zbekiston Respublikasi bo‘lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari degan band qo‘silib, elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritildi.

2019-yilda inspeksiya tomonidan 45 859 mlrd. so‘mlik soliq tushumlari davlat byudjetiga yig‘ilgan bo‘lib, bu jami respublika miqiyosida yig‘ilgan soliqlarning 55 foizi demakdir. Dunyo mamlakatlari xususan, Respublikamiz bo‘yicha pandemiya bo‘lishiga qaramasdan, Inspeksiya tomonidan 2020-yil uchun byudjetga belgilangan to‘lovlarning 67 717 mlrd. so‘mi undirib berilgan. Bu esa mamlakat bo‘yicha jami yig‘ilgan soliqlarning 65 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda 81 771 mlrd.so‘m undirilib, jami tushumdagisi ulushi 64 foizni tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin.

*Yirik soliq to‘lovchilar faoliyatida soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga riox qilinishi bo‘yicha soliq nazoratini tashkil etish borasida:*

2020-yilda Inspeksiya tomonidan 181 ta kameral soliq tekshiruvi o‘tkazildi va tekshiruv natijasida 1 777 mlrd.so‘m qo‘sishimcha soliq hisoblandi, 2021-yilda esa 1003 ta kameral soliq tekshiruvi o‘tkazilib, 1793,6 mlrd.so‘m, audit tekshiruvi natijasida 32 ta korxonada 540,9 mlrd.so‘m, 115 ta sayyor soliq tekshiruvida esa 28,4 mlrd.so‘m soliq hisoblanganligini ko‘rishimiz mumkin.

*Yirik soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko‘rsatilishi amalga oshirish borasida:*

Yirik soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik asosida servis-texnik xizmat ko‘rsatilishi amalga oshirilmoqda, interaktiv xizmatlardan foydalanish, tizimdagisi dasturiy xatoliklar va boshqa mavzudagi 2019-yilda 320 ta, 2020-yilda 711 ta, 2021-yilda 812 ta murojaatlarga javob berilgan. Shuningdek, 2020-yilda Pandemiya davrida soliq to‘lovchilar uchun avtotransport vositalaridan foydalanish uchun stiker berish tizimi yaratilgan.

Davlat soliq qo‘mitasi bilan hamkorlikda “Qo‘silgan qiymat solig‘ini qaytarish” moduli ishlab chiqildi, shuningdek, hozirda 6 ta interaktiv xizmat yaratilish ishlari amalga oshirilgan. SIAIJ-5 dasturida korxonalarning bir hududdan boshqa bir hududga ko‘chib o‘tishi, boshqa korxona tarkibiga qo‘silib ketishi bilan bog‘liq holatlar o‘rganilishi natijasida 2020-yilda yirik korxonalarini markazlashtirish natijasida 400 dan ortiq ShHVlar bosh ofislariga ko‘chirib o‘tkazilgan. 2021-yil davomida 450 ta korxonalar ShHVlarga o‘zgartirishlar kiritilgan, natijada 2,4 mlrd.so‘m soliq qarzi va 4,5 mlrd.so‘m ortiqcha to‘lov tegishli shaxsiy hisobvaraqlarga o‘tkazilib, ortiqcha to‘lov va soliq qarzi qisqartirishga erishilgan.

Xodimlarning soliq to‘lovchilar bilan muntazam muloqotini ta’minalash maqsadida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta’minlovchi 2020-2021-yillar davomida 60 ta

shahar aloqa tarmoq liniyasi (SipTrunk) hamda bir paytda 60 ta IP telefon xizmat qiluvchi qo'shimcha aloqa kanallari ochilib, mas'ul xodimlarga biriktirish ishlari amalga oshirilgan.

*Yirik soliq to'lovchilar ma'muriyatichiligi doirasida soliqqa oid huquqbazarliklarni profilaktika qilish, aniqlash va oldini olish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish borasida:*

Soliqqa oid huquqbazarliklar bo'yicha 2019-yil, 197 ta, 2020-yilda 188 ta va 2021-yilda 401 ta ma'muriy ishlar bo'yicha materiallar sudga ko'rib chiqish uchun yuborilgan. Qo'llanilgan ma'muriy jarima miqdori 2019-yilda 28,4 mln.so'm, 2020-yilda 76,5 mln.so'm va 2021-yilda 171 mln.so'mni tashkil etgan. Soliq to'lovchilar bilan 2019-yilda 7 ta, 2020-yilda 8 ta va 2021-yilda 69 ta seminar-treninglar o'tkazilgan. Soliqqa oid normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo'yicha 2019-yilda 40 tadan ortiq, 2020-yilda 102 ta, 2021-yilda 105 dan ortiq takliflar ishlab chiqilgan.

1-jadvalda O'zbekiston soliq tizimida yirik soliq to'lovchilarni soliqqa tortish ma'murchiligining shakllanishini tavsiflaydigan ko'rsatkichlardan biri bu yirik soliq to'lovchilar toifalari kiruvchi korxonalarining faoliyat turlari va sohalar bo'yicha sonining dinamik o'zgarish holati hisoblanadi. Shu boisdan ham yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu toifadagi korxonalarining soni 2019-yilda 1416 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning boshida bu ko'rsatkich 957 tani tashkil qilgan holda, ularning soni kamayganligini ko'rsatadi.

### 1-jadval

#### O'zbekistonda yirik soliq to'lovchilar toifalari kiruvchi korxonalarining faoliyat turlari va sohalar bo'yicha sonining dinamik o'zgarishi tahlili<sup>3</sup>

№	Yirik soliq to'lovchilar toifalari			
	Jami			957
1	Aktsiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi va aktsiz solig'i solig'i bo'lgan xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar			
2	Tijorat banklari, tovar, fond va valyuta birjalari			5
3	Navoiy KMK AJ, Olmaliq KMK AJ va ularning ta'sischiligidagi tashkilotlari			4
4	Mahsulot taqsimoti bo'yicha shartnomalar bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etuvchi tashkilotlar			
5	O'tgan kalendar yil oxirida mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumlari 100,0 milliard so'mdan ortiq yoki ketma-ket o'n ikki oylik davr oxirida ushbu summadan oshgan yuridik shaxslar			565
6	Uglevodorodlar va mineral resurslarni qazib olish, qayta ishlash, etkazib berish va sotish, shuningdek, elektr energiyasini ishlab chiqarish va etkazib berish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, yoqilg'i quyish shoxobchalari bundan mustasno			175


<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ кўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

7	O'zbekiston Respublikasi havo hududidan xalqaro havo qatnovlarini amalga oshiruvchi yo'lovchi tashish maqsadlari uchun foydalanuvchilar va ularning ta'sis etuvchi yuridik shaxslari				20
8	Realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi bo'lgan elektron shakldagi xizmatlarni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi chet el yuridik shaxslari				36


Bunga asosiy sabab bu toifaga kiruvchi korxonalarini aniqlash mezonlarining birmuncha o'zgartirilganligi, shuningdek, tijorat banklari, tovar, fond va valyuta birjalari toifasiga kiruvchi tashkilotlarning sonining keskin qisqarishi va ayrim soliq to'lovchilarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatidagi nobarqaroliklar sabab ular bu toifadagi korxonalar mezonlariga to'g'ri kelmay qolganligi hamda Navoiy KMK AJ, Olmaliq KMK AJ va ularning ta'sischiligidagi tashkilotlar tarkibidagi korxonalar sonining qisqarishi boshqa shu kabi omillar bo'lgan.

**Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat inspeksiysi va uning tarkibiy bo'linmalarining funktional tuzilishi va ularning vazifalarini takomillashtirish sxemasi**

**Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining DASTLABKI TUZILMASI**



**Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining dastlabki tuzilmasi saqlab qolning holda takomillashtirilgan TUZILMASI**



**2-rasm. Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining dastlabki tuzilmasi saqlab qolning holda takomillashtirilgan tuzilmasi<sup>4</sup>**

<sup>4</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Ta'kidlash o'rinni yirik soliq to'lovchilarni soliqqa tortish ma'murchiligining shakllanishini tavsiflaydigan yana bir ko'rsatkichlardan biri bu yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat inspeksiysi va uning tarkibiy bo'linmalarining funksional tuzilishi va ularning vazifalari hamda funksiyalari bilan bog'liq tashkiliy-texnik hamda uslubiy jarayonlardir. Yirik soliq to'lovchilarga oid soliq ma'murchilagini yuritishga mas'ul bo'lgan yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining tuzilmasini tanqidiy tahlilimiz shuni ko'rsatmoqdaki, uning tarkibiga kiruvchi tuzilmalar (bo'lim va sho'balar)ning funksional vazifalari va ularni amalga oshirish holati soliq ma'murchiligining ta'sirchanligini etarli darajada ta'minlay olayapti degan xulosani bermaydi.

**Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining Xavfni va transfert narxlarini tahlil qilish bo'limi**

**Bo'limning asosiy funksional vazifalari**

- Organlar va tashkilotlardan olingan ma'lumotlarni belgilangan tartibda Inspeksiyaning yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasida shakllanishini ta'minlash;
- Soliq xavfini baholash va soliq to'lovchilarni insoflik mezonlari asosida segmentlash tizimini joriy qilish bo'yicha ishlarni amalga oshirish;
- Yirik soliq to'lovchilarning majburiyatları paydo bo'lishi (tugatilishi) to'g'risida ma'lumot taqdim etadigan idora va tashkilotlardan belgilangan ma'lumotlarni elektron tarzda to'liq olinishini ta'minlash va tashqi manba ma'lumotlaridan foydalangan holda soliq solinadigan bazani kengaytirish uchun qo'shimcha manbalarni aniqlash;
- Soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarib keladigan insofli soliq to'lovchilarni aniqlaydi va hisobini yuritish hamda ularga soliq solishning joriy masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- Tahlil natijalariga ko'ra ma'lum bir mezonlar asosida soliq to'lashdan bo'yin tovslash xavfi yuqori bo'lgan sub'ektlarga nisbatan zarur va eng samarali choralarini amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- Xavfni tahlil qilish va soliq to'lovchilarni segmentlash orqali soliq solish qismida iqtisodiyotning xufiyona sektorini legallashtirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish;

**3-rasm. Xavfni va transfert narxlarini tahlil qilish bo'limining funksiyalari<sup>5</sup>**

Shu jihatdan olganda biz inspeksiyaning tarkibiy tuzilmasida qo'shimcha ravishda ayrim bo'linmalarini tashkil etish va ularning faoliyatini aniqlashtirish asosida

<sup>5</sup> Муаллифнинг тавсиялари асосида тузилган.

yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq ma’murchiliginin ta’sirchanligini oshirish orqali bu borada samaradorlikka erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Shundan kelib chiqqan holda bizning fikrimizcha, yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasini amaldagi tarkibiy tuzilmasida quyidagi: Xavfni va transfert narxlarini tahlil qilish va qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatichiligi bo‘limlarini va ularning tarkibida o‘zaro bog‘langan hamda funksional zarurlikka asoslangan sho‘balarni, shuningdek Soliq nazorati bo‘limi tarkibida Aktsiz solig‘i nazorati sho‘basini tashkil etish lozim hisoblaymiz. Bundan tashqari ushbu bo‘lim rasmda keltirilgan funksiyalardan tashqari quyidagi:soliq tekshiruvlarini o‘tkazish uchun sub’ektlarni tanlashda, har bir sub’ekt to‘g‘risida soliq organlarida mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlar avtomatlashtirilgan tizim orqali tahlil qilinishini ta’minlaydi, tahlil natijalariga ko‘ra ma’lum bir mezonlar asosida soliq to‘lashdan bo‘yin tovslash xavfi yuqori bo‘lgan sub’ektlarga nisbatan zarur va eng samarali choralarни amalga oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliqlarning yig‘iluvchanligini oshirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish, tashqi va ichki manbalardan kelib tushadigan ma’lumotlarni tahlil qilishning ilg‘or avtomatlashtirilgan usullarini joriy etish, soliq to‘lovchilarning qo‘shilgan qiymat solig‘i manfiy summasini qaytarishda soliq tavakkalchiliklarni avtomatlashtirilgan nazoratdan o‘tkazish, davlat soliq xizmati organlariga ma’lumot taqdim etadigan vakolatlari organlar, shuningdek vazirlik va idoralar tarkibini yoki olinadigan ma’lumotlar turlarini yanada kengaytirish yuzasidan tegishli tadbirlarni belgilangan tartibda amalga oshirib borish kabi funksiyalarni ham yuklatish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma’murchiliginin yanada takomillashtirish jarayonida yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasining Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’murchiligi bo‘limi kabi qo‘shimcha institutsional tuzilmani tashkil etish zarurati tug‘ilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarining samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida” 2022-yil 14 fevraldaggi PQ-128 son qarori bilan Moliya vazirligining aktsiz solig‘ini to‘g‘ri va o‘z vaqtida hisoblanishini nazorat qilish funksiyasi Davlat soliq qo‘mitasiga o‘tkazildi. Shu sababli, Davlat soliq qo‘mitasida Aktsiz solig‘i nazorati bo‘limi va Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasida Aktsiz solig‘i nazorati sho‘basi tashkil etish lozim deb hisoblaymiz.

### **Xulosa va takliflar:**

Xorijiy davlatlarda Yirik soliq to‘lovchilar soliq ma’murchiliginin amalga oshirishda qo‘llanilayotgan tajribalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq. Soliq kodeksining 36-moddasiga asosan doimiy muassasa deganda har qanday bo‘linma tushunilishi sababli, yuqoridagi nizomning ye)

bandini “uglevodorod hom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, yetkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va yetkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) yetkazib beruvchi chet el yuridik shaxslarining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari. Bundan avtomobilgarga yoqilg‘i quyish shahobchalari mustasno” tahririda o‘zgartirish taklif etiladi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Akhand Z. Understanding the effects of coercive and persuasive tax compliance tools on large corporate taxpayers [online] // Journal of Australian Taxation. 2014. Vol. 16, No. 2. P. 206– 258.
2. Grob P. Tax governance and justified trust [online] // Taxation in Australia. 2017. Vol. 52, No. 5. P. 261–265.
3. Юнак, А.А.. Проблемы правового регулирования налогового контроля и учета крупнейших налогоплательщиков. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидат юридических наук. Москва 2009.
4. Ситникова Ольга Владимировна. Совершенствование налогообложения крупнейших консолидированных налогоплательщиков. Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени кандидат экономических наук. Москва 2012.
5. Пепеляев С.Г. Актуальные проблемы законодательства и правоприменительной практики налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков // Правовые проблемы налогового администрирования крупнейших налогоплательщиков. М.: ВолтерсКлювер, 2006. // Экономические науки. 2010. № 69. С. 153–156.
6. Карагаев А.С. Налоговая политика государства в отношении крупнейших налогоплательщиков // Инновационное развитие экономики. 2011. № 2. С. 23–32.
7. Айтхожина Г.С. Особенности планирования выездных налоговых проверок крупнейших налогоплательщиков // Вестник Омского университета. Серия: Экономика. 2011. № 1. С. 190–192.
8. Белугина М.В. Налоговое администрирование крупнейших налогоплательщиков: проблемы, пути совершенствования // Инновационное развитие экономики. 2015. № 5 (29). С. 27–30.
9. Жумаев Ш. Йирик солик тўловчиларга оид солик маъмурчилигини такомиллаштириш масалалари: и.ф.д (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2023
10. Ўзбекистон Республикаси Солик кодекси- Тошкент: Faafur Fулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
11. Normurzaev U. K. Amendments and additions to the tax code of the republic of uzbekistan on tax privileges in 2021. – 2021
12. Нормурзаев Умид Холмурзаевич Ҳукуматимиз томонидан берилётган солик имтиёзларининг ҳисобини юритиш ва самарадорлигини таҳлил қилиш масалалари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2021. №10 (146). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ukumatimiz-tomonidan-berilayotgan-soli-imtiyozlarining-isobini-yuritish-va-samaradorligini-ta-lil-ilish-masalalari> (дата обращения: 17.01.2023)
13. Нормурзаев У. Х. 2021 йилдаги солик маъмурчилиги ҳамда солик кодексига киритилган ўзгартариш ва қўшимчалар юзасидан //Интернаука. – 2021. – Т. 6. – №. 182 часть 2. – С. 99.